



## Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar


### Raqamlar:

- 2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 252,6 mlrd.so`mni tashkil etdi.
- Me`morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar o`shish sur`ati 441,4 % ni tashkil qildi.
- Jami bozor xizmat-larida savdo xizmat-larning ulushi – 37,8 %.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifa va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2018 yil yanvarda bozor xizmatlari hajmi 252,6 mlrd.so`mni, o'sish sur'ati 106,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 37,8 %), transport xizmatlari (18,9 %), moliyaviy xizmatlar (12,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### 2018 yil yanvarda xizmatlar tarkibida ulushi katta bo'lgan xizmatlar tarkibi , % da




## 2018 yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi boyicha ishlab chiqarish hajmi


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2017 yil yanvarga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>252,6</b>	<b>106,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	16,2	117,1	6,4
moliyaviy xizmatlar	31,4	110,5	12,5
transport xizmati	47,7	105,5	18,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	12,0	104,9	4,8
savdo xizmatlari	95,5	100,1	37,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	5,5	106,1	2,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	6,1	106,1	2,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,3	102,5	0,9
ijara va prokat xizmatlari	4,5	100,7	1,8
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	5,0	100,6	2,0
boshqa shaxsiy xizmatlar	11,9	100,3	4,7
me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7,3	441,4	2,9
boshqa turdagi xizmatlar	4,7	100,3	11,9

Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirish, texnik va texnologik yangilash borasidagi islohotlarni davom ettirilishi hisobiga hisobot davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 117,1 % moliyaviy xizmatlar bo'yicha – 110,5 %, ta'lim xizmatlari bo'yicha – 106,1 %, yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

### 2018 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'ati, % da



## 2018 yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi , % da



Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli 37,8 % qismini tashkil etib, 2017 yil yanvarga nisbatan 100,1 % ga o'sdi.

**Xizmatlar turi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi  
ming so'mda**

